

O'zbek olimlari tomonidan yaratilgan silga qarshi preparat

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo institutida yetakchi ilmiy xodimi Sh.Shomurotov rahbarligidagi bir guruh olimlar silga qarshi "Biomayrin 600 mg" preparatini yaratdilar. Ushbu preparat poligalakturon kislotosi (pektin) va silga qarshi preparatlar - izoniazid, etambutol va rifampitsin asosida olingan.



O'zbek olimlari tomonidan yaratilgan mazkur preparatning afzalligi shundaki, u makromolekulyar tabiatga ega bo'lib, tabiiy polimer poligalakturon kislota makromolekulasiga silga qarshi izoniazid, etambutol va rifampitsin kimyoviy bog'lar vositasida bog'langan. Buning natijasida ushbu kasallikka qarshi boshqa preparatlarga nisbatan organizmga noj'o'ya ta'siri bir necha marta kamaygan hamda organizmdagi samarali ta'sir vaqtি bir necha bor ortgan. Preparat patogen hujayralarga yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatadi, silning turli shtammlariga nisbatan yuqori faollikka ega.

Hozirda ushbu "Biomayrin 600 mg" preparati tijoratlashtirishga yo'naltirilgan.